

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
“TARMOQLAR IQTISODIYOTI” KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

UDK 330.322.01

MUHIDDINOV TAL'AT SHAYDULLO O'G'LI
HUDUDLAR IQTISODIYOTINING INVESTITSIYA JOZIBADORLIGI VA
UNI BAHOLASH

70310102 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

MAGISTR
AKADEMIK DARAJASINI OLIH UCHUN YOZILGAN

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
i.f.n., dots. A.Vahobov


Toshkent – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasida dastlabki himoyadan oʻtgan. 20 - sonli bayonnoma «21» 04 2023 y.

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. A.Vahobov


imzo  Sana

Talaba: T.Muhiddinov

imzo  Sana

Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil “26” 05
№ 1/23 raqami bilan ro‘yxatga olingan

“Himoyaga ruxsat etiladi”

“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasini
mudiri i.f.n., prof. I.Xotamov 
“8” “05” 2023 yil

Himoya Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetida
2023 yil “26” 05 soat “10⁰⁰” da bo‘ladi

Bugungi kunda asosiy e'tibor investitsiyalarga qaratilmoqda va hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning eng samarali va maqbul yo'li ham investitsiyalar hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev investitsiya va uning ahamiyati haqida quyidagi fikrlarni bildirib o'tganlar: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi".

Magistrlik dissertatsiya ishida quyidagi asosiy masalalar hal etilgan: hududlarning investitsion salohiyatini o'rganib chiqqan holatda, har bir hududning qaysi ishlab chiqarish tarmog'iga moslashganligini hamda aynan shu ishlab chiqarish tarmog'iga investitsiyalarni (xorijiy va mahalliy) jalb qilish orqali hududlarning investitsion salohiyatini oshirishga erishildi. Bugungi kunning asosiy masalalaridan bo'lgan yashil iqtisodiyot va barqaror o'sish doirasida olib borilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimizning ayrim hududlarida yashil iqtisodiyotga qaratilgan investitsiyalarni ko'paytirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish xolatlari tahlil qilingan. Tadqiqotlar jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar amaliyotda qo'llanilishi orqali hududlarda investitsion salohiyat oshishiga olib kelindi.

So'ngi yillarda mamlakatimizda o'tkazilayotgan "Toshkent xalqaro investitsiyalar forumi" ham mamlakatimizning investitsion salohiyatini oshirishga hamda xalqaro intergratsiyalarga tezroq qo'shilishga berilayotgan asosiy e'tibordan dalolat beradi. Ushbu dissertatsiya ishida hududlarning investitsion salohiyatini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha xulosa va takliflar nazariy tahlillar asosida asoslab ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Investitsiya, xududiy investitsiya, investitsion salohiyat, investitsiyani baholash, investitsiya ko'rsatkichi, Toshkent xalqaro investitsiya forumi, reinvestitsiya, xalqaro investitsiya.*

MUNDARIJA

I BOB. KIRISH.....	8
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	8
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari	11
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	12
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti.....	13
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati	13
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	13
II BOB. ADABIYOTLAR SHARXI.....	15
2.1. Adabiy manbalarda keltirilgan tadqiqotlar natijalari	15
2.2. Tadqiqot gipotezasi	24
III BOB. TADDIQOT METADOLOGIIYASI	31
3.1. Ma'lumotlar manbalari	32
3.2. Tadqiqot dizayni	32
3.3. Tadqiqotda qo'llanilgan uslublar	33
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar	33
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	34
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	35
IV BOB. TADDIQOT TAHLILI VA NATIJALAR	36
4.1. Hududlarda investitsiyalarni rivojlantirish orqali hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati.....	36
4.2. O'zbekistonda hududlarning investitsion faoliyati ko'rsatkichlari va ularning tahlili	44
4.3. Hududlarda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va ularning hududlar kesimida tahlili. Investitsion jozibadorlik va uni baholash.....	53
V BOB. XULOSA VA TAKLIFLAR	65
5.1. Tadqiqotning asosiy ilmiy - amaliy yangiligi va natijalari	65
5.2. Tadqiqot natijasida keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar	66
5.3. Kelgusi tadqiqotchilar uchun takliflar	68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	69

I BOB. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Bugungi kunda asosiy e'tibor investitsiyalarga qaratilmoqda va hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning eng samarali va maqbul yo'li ham investitsiyalar hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev investitsiya va uning ahamiyati haqida quyidagi fikrlarni bildirib o'tganlar: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi"¹

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"²gi prezident farmonida berilgan "26-maqсад: Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish" masalalari ilgari surilgan. Ushbu banda ko'rsatilgan maqsadning ustuvor vazifalari quyidagilardan iborat:

- Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.

<https://lex.uz>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". 28.01.2022 yildagi PF-60-son. Lex.uz

<https://lex.uz>